




“O‘ZBEK FOLKLORI VA SHEVALARI TADQIQOTLARI: AMALIYOT, METODOLOGIYA, YANGICHA YONDASHUV”

mavzusidagi xalqaro ilmiy-nazariy
konferensiya materiallari

2026-yil 23-may

*(Professor Samixon Ashirboyev tavalludining
80 yilligi munosabati bilan tashkil etilgan)*



“O‘zbek folklori va shevalari tadqiqotlari: *amaliyot, metodologiya, yangicha yondashuv*” mavzusidagi xalqaro ilmiy-nazariy konferensiya materiallari
/ Mas’ul muharrir: Sh.Sirojiddinov. – Toshkent, 2026. bet.

Mas’ul muharrir:
Shuhrat Sirojiddinov
filologiya fanlari doktori, akademik

Tahrir hay’ati:

Normurodova N.Z. filologiya fanlari doktori, professor;
Jabborov N.A. filologiya fanlari doktori, professor;
Ashirboyev S. filologiya fanlari doktori, professor;
Tilavov A.X. filologiya fanlari nomzodi, dotsent;
Xidraliyeva Z.R. filol. fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent v.b.;
Aliqulova H.Q. filol. fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), katta o‘qituvchi;
Turdialiyev A.X. filol. fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent v.b.;
Alimardanov E.I. filol.fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), kattao‘qituvchi;
Qodirov U.A., katta o‘qituvchi.

Ushbu to‘plamda Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat O‘zbek tili va adabiyoti universitetida 2026-yil 23-mayda o‘tkazilgan **“O‘zbek folklori va shevalari tadqiqotlari: *amaliyot, metodologiya, yangicha yondashuv*”** mavzusidagi xalqaro ilmiy-nazariy konferensiya materiallari hamda filologiya fanlari doktori, professor Samixon Ashirboyevning tabarruk yoshi munosabati bilan yo‘llangan tabriklar o‘rin olgan.

To‘plam materiallaridan filolog mutaxassislar, ilmiy tadqiqotchilar, magistratura va bakalavriat talabalari, shuningdek, keng o‘quvchilar ommasi foydalanishlari mumkin. Maqolalar sifati, mazmuni va haqiqiyliги uchun muallifning o‘zi javobgar hisoblanadi.



	Nurafshon shahar shevasining ayrim dialektal xususiyatlari	
15	Sadoqat RAJABOVA, Ishtixonda yashovchi etnik arablar	246
16	Umarjon QODIROV, Shonazar Shoabdurahmonov – lingvofolkloristika asoschilaridan	249
17	Gulchexra AHATOVA, Toyloq shevasidagi iboralar va ularning ingvomadaniy tahlili	253
18	Hayotxon SOTIMOVA, Xorazm o‘zbek shevalarida oila konseptining urf-odat va marosimlardagi lingvomadaniy ifodasi	260
19	Ramazon ORTIQOV, “Ikkilamchi nominatsiya” tushunchasining ilmiy adabiyotlardagi talqini	264

3-SHO‘BA. DIALEKTAL LEKSIKOGRAFIYA, DIALEKTAL KORPUS, TOPONIMIYA VA LINGVOKULTUROLOGIYA

1	Hamidulla DADABOYEV, XI–XII asr turkiy til tibbiy terminologiyasi tizimining “devonu lug‘otit turk”da aks etishi 10.52773/tsuull.conf.2026.23.05/PTYD5470	271
2	Nishonboy HUSANOV, “Lug‘ati chig‘atoyi va turkiy” – o‘zbek shevalarini o‘rganishda muhim tarixiy manba 10.52773/tsuull.conf.2026.23.05/MAKE1648	276
3	Baxtiyor MENGLIYEV, Dilrabo ELOVA Lingvo-mantiqiy ekspertiza: yuridik lingvistikada integrativ yondashuv masalasi	281
5	Muhayyo HAKIMOVA, Milliy tafakkurning abstrkat leksika shakllanishiga ta’siri 10.52773/tsuull.conf.2026.23.05/MBYM8287	284
6	Nilufar ABDURAXMONOVA, Nasima ABDULLAYEVA, Dialektal birliklarning raqamli korpus modelini yaratish masalalari 10.52773/tsuull.conf.2026.23.05/TYZS7723	292
7	Zamira DJURABAYEVA, Fitonimlarning dialektal tabiati haqida ba’zi mulohazalar	297
8	Muyassar XOLOVA, Dialektal korpusda olmosh so‘z turkumining teglanishi	300
9	Anvarbek TURDIALIYEV, Ma’lumotlar bazasini shakllantirish va qidiruv tizimiga joylashtirish masalalari	304
10	Gulxayo ISABAYEVA, Sardor JO‘RAQULOV Tog‘ay Murod nasrida dialektizmning o‘rni (Otamdan qolgan dalalar romani misolida)	313
11	Feruza AMINOVA, Badiiy matnda nurota shevasiga xos morfologik shakllarning qo‘llanishi va uslubiy vazifasi	316
12	Oynisa XOJIYEVA, O‘zbek va turk tillarida paremiologik birliklarning struktur-semantik va funktsional munosabati	320
13	Dildora AMIROVA, “Bobur” antroponimining badiiy matnlarda allyuziv nom sifatida qo‘llanilishi	325
14	Kamola NOSIROVA, Dialectological features and lexical layer of alla texts in tashkent region	328

**XORAZM O'ZBEK SHEVALARIDA OILA KONSEPTINING URF-ODAT VA
MAROSIMLARDAGI LINGVOMADANIY IFODASI**

**THE LINGUOCULTURAL REPRESENTATION OF THE FAMILY CONCEPT IN
THE DIALECTS OF UZBEK SPOKEN IN KHOREZM IN TRADITIONS AND
RITUALS**

Hayotxon SOTIMOVA,

UrDU tayanch doktoranti

10.52773/tsuull.conf.2026.23.05/JNEG3344

Annotation. *This article analyzes the linguocultural representation of the family concept in Uzbek dialects of Khorezm within the system of traditions and rituals. The family concept is regarded as an important linguistic unit reflecting the cultural values, social relations, and traditional worldview of the people. The study examines language units associated with Khorezm-specific rituals such as childbirth, circumcision, hospitality, as well as national and religious ceremonies, together with their semantic features. The results demonstrate that the family concept in Khorezm Uzbek dialects is closely connected with national mentality and cultural values.*

Key words: *family concept, Khorezm dialects, linguoculture, traditions, rituals, values.*

Hozirgi zamon tilshunosligida inson tafakkuri, madaniyati va ijtimoiy tajribasining til orqali ifodalanishini o'rganuvchi lingvomadaniyatshunoslik yo'nalishi alohida ahamiyat kasb etmoqda. Ushbu yo'nalishda til birliklari nafaqat kommunikativ vosita, balki muayyan xalqning tarixiy-madaniy xotirasi, qadriyatlari va dunyoqarashini aks ettiruvchi muhim omil sifatida talqin qilinadi. Shunday konseptlardan biri – oila konsepti bo'lib, u har bir millatning ijtimoiy tuzilmasi, axloqiy me'yorlari va an'anaviy qadriyatlari bilan chambarchas bog'liqdir.

O'zbek xalqining lisoniy manzarasida oila konsepti keng va ko'p qatlamli mazmunga ega bo'lib, u turli urf-odatlar, marosimlar, e'tiqodlar va an'analar tizimida o'z ifodasini topadi. Ayniqsa, hududiy shevalarda mazkur konseptning o'ziga xos lingvomadaniy talqinlari kuzatiladi. Xususan, Xorazm o'zbek shevalari oila bilan bog'liq marosimlar, urf-odatlar va an'analarni ifodalovchi boy leksik birliklar hamda frazeologik vositalarga egaligi bilan ajralib turadi.

Xorazm o'zbek shevalarida oila konsepti eng avvalo turli marosim va urf-odatlarda o'zining yorqin ifodasini topadi. Ushbu marosimlar inson hayotining muhim bosqichlarini qamrab olib, u orqali jamiyatning oila haqidagi tasavvurlari, qadriyatlari va e'tiqodlari namoyon bo'ladi. Quyida ana shunday marosimlarning ayrimlari lingvomadaniy jihatdan tahlil qilinadi.

To'y marosimlariga kiruvchi katta marosim sunnat to'yidir. Sunnat to'yi xalq orasida farzand qo'lini halolash, xatna qilish nomlari bilan atalsa, Xorazmning ko'pgina hududlarida *sunnät ätmäk, sunnät toji, sunnätlämaq, çükünü kästirmaq, çükünü palavını jemäk, ulla bala ätmaq, çükünü majlämaq* tarzida qo'llaniladi. Xatna qilish jarayonida xalq orasidagi irim-sirimlardan biri bolani xatna qilish paytida onasi boshqa xonada jimjilog'ini yog'ga botirib turishi, otasi esa sovuq suvga botirib turishi bilan bog'liq. Mazkur holat ramziy jihatdan bolaning sunnat qilish jarayonini yumshoq, og'riqsiz va muvaffaqiyatli o'tishini tilash bilan izohlanadi. Bola xatna qilingandan keyin *is çiqariladi* (bo'g'irsoq pishirilib, tarqatilishi shu nom bilan yuritiladi) va mol yoki qo'y so'yilib, undan taom qilinib tarqatiladi yoki shu kuni barchani chaqirib to'y qilinadi. Aksar sunnat to'ylarda kurashchilar va dorbozchilar ham chaqiriladi. Bunday sunnat to'ylar Xorazmda "polvonli to'y" yoki "polvonli sunnat to'yi" deb yuritiladi.

Gälin čaqırışma marosimi ham ayollar orasida eng e'tiborli marosimlardan biri. Unda kelinni barcha yaqin qarindoshlari tanishish maqsadida o'z uylariga chaqiradilar. Kelin eshikdan kirgandan egilib salom berib boshlaydi va ovqat yeb bo'lingandan keyin ham uy egasi va mehmonlar yetarli, rahmat demaguncha ta'zim qiladi. Ketmoqchi bo'lganida ham orqa tomoni bilan to'g'ri chiqib ketmay, oldinga qarab ta'zim qilib chiqib ketadi.

Tug'ilish bilan bog'liq oilaviy marosimlardan eng diqqatli marosim *göz ajd'in* marosimi. *Göz ajd'in* marosimi bola tug'ilgan kuniyoq yoki ertasiga bo'lib o'tadi. Barcha qarindoshlar, do'st-u yorlar shu kuni *göz ajd'in* marosimiga kelishadi. Kelganlarning bari xonadon egalarini tabriklash ma'nosida *göziñ ajd'in* iborasini ishlatishadi. *Göziñ ajd'in* iborasi odatda chaqaloq tug'ilganda otanasiga, uning yaqin qarindoshlariga nisbatan aytiladi va "ko'zing yorishdi", "farzand sog'salomat dunyoga keldi" ma'nosida qo'llaniladi. Mazkur marosim oila konseptida farzandni dunyoga kelishini eng ulug' ne'mat sifatida qadrlash, quvonchni jamoa bilan baham ko'rish hamda ijtimoiy birdamlik kabi tamoyillarni ifodalaydi. Marosim kuni kelganlarning hammasi tuxum va boshqa sovg'a-salomlar olib kelishadi. Mehmonlarga dastlab *jumurta qordaq* (tuxum go'sht bilan yoki o'zi yog'ga qovurilib pishiriladi)[1:111-b] chiqariladi. Undan so'ng marosimning asosiy taomi tortiladi. Bu marosim asosan Urganch va Xiva tumanlarida shu nom bilan yuritiladi. Xonqa, Yangibozor, Hazorasp tumanlarining ayrim hududlarida bu marosim aynan bir kunda o'tkazilmay, aqqa sadaqasi kunigacha xabardor bo'lgan qarindosh-urug' kelib tabriklashadi.

Chaqaloq uyga kelgandan keyin avval isiriq tutatish irimi qilinadi. Undan so'ng uyda chaqaloqni akasi yoki opasi bo'lsa, chaqaloqni unga to'g'ri yuzini ko'rsatmasdan bu sening ukang bo'ladi, deya dastlab chaqaloq oyog'ini ko'rsatish urf-odati qilinadi. Bizningcha, bu odatni qilishdan maqsad katta farzandning yangi tug'ilgan chaqaloqqa nisbatan ichki rashk yoki qiziqish hissini yumshatish. Dastlab yuzini emas oyog'ini ko'rsatish orqali asta-sekin katta farzand yangi vaziyatga psixologik moslashtiriladi.

Tug'ilish bilan bog'liq marosimlardan beshikka solish marosimi yangi tug'ilgan chaqaloqni ilk bor beshikka solish bilan bog'liq urf-odatlarni majmuasidir. Beshikka solishdan oldin chaqaloqni tuz, kesak solingan suv bilan yuvintirishadi. Beshikni ko'tarib olib kirgan ayolga alohida hadya beriladi. Unda so'ng beshikning *tüväk, düväki* [tuvak, duvak] o'zbek tili izohli lug'atida quyidagicha izohlanadi, (beshikka belangan bolaning siydik va axlati tushadigan beshik asbobi)[4:149-b] ga solingan turli xil shirinliklar atrofga, beshik ustiga sochiladi va tuvak ichi bo'shagach, ichiga *navant* [novvot] solinadi. Ustidan qaynagan suv solib shirin suv qilinadi va shirin suvi onasiga ichiriladi. Ushbu an'analar orqali yangi tug'ilgan bolaning umri shirin damlarga boy bo'lsin, shirin hayot kechirsin, deya niyat qilinadi.

Chaqaloqni beshikka belashdan oldin marosimda ishtirok qilayotganlar va onasi o'z uyqularini ramziy ravishta sotadilar, ya'ni hadya qiladilar (uyqu sotish – uyqusini chaqaloqqa hadya qilish. Unda chaqaloq kimning uyqusini olsa, go'yoki o'sha insonning uyqusi qanday bo'lsa, shunday uxlaydi). Onaning yelkasiga go'dakni qo'yib ham onaning uyqusi chaqaloqqa hadya qiladi. Unda ona chaqaloqqa "uyqumni sottim" deya har bir yelkasiga qo'yilganida uch marotaba aytib, uyqusini hadya qiladi. Beshikka yoshi ulug', hurmat e'tiborga ega pir-u badavlat onaxonlar tomonidan solinadi. Ularning mavqei, yaxshi fazilatlari bolaga ham o'tsin deya niyat qilinadi. Avval beshik atrofidan o't o'tiriladi, yostiqlashi tagiga chaqaloq yaxshi uxlasin, yovuz kuchlar bezovda qilmasin degan maqsadda non, tuz, qalampir ba'zan pichoq ham qo'yiladi. Beshikka solish o'ng tarafdin boshlanib, *o'ngmì, o'ng, o'ngmì, o'ng, o'ngmì, o'ng* [o'ngmi, o'ng taraf, qulay taraf ma'nosida] deya beshikka solayotgan onaxon tomonidan uch marotaba aytiladi, yonidagilar esa *o'ng, o'ng* [o'ng, o'ng] deb tasdiqlashgandan keyin chaqaloq beshikka yotqiziladi. Kelajakda o'zidan ko'p avlod qoldirsin, farzandlari ko'p bo'lsin, el-u yurtga kerakli inson bo'lsin deya chaqaloq haqqiga uzundan uzoq duolar qilinadi. Keyin beshikka belagan momolardan biri alla aytadi.

Farzand hayotining turli bosqichlariga aloqador tadbirlar. Bunday tadbirlardan biri bu *soch oldirish* marosimidir. Ushbu marosim farzand hayotining 7-kuni amalga oshiriladi. Farzandning ilk bor sochini olish masalasi islomiy manbalarda aqıqa marosimi bilan bog'liq holda bayon etiladi. Jumladan, "Sahih al-Buxoriy" da keltirilgan hadisda: "Har bir bola aqiqasi bilan garovlidir. Yettinchi kuni so'yiladi va sochi olinadi" mazmunidagi hadis keltirilgan[2:338-b]. Shunga asosan bu marosimni asosan chaqaloq yetti kunligida, ba'zan unga ziyon yetkazib qo'yishdan qorqan ota-onalar qirq kunlik bo'lgandan keyin o'tkazishadi. Olingan soch tarozida o'lchanadi va necha gramm chiqsa, shuncha gramm kumush qiymatiga teng bo'lgan pul yetim-yesirlarga sadaqa qilinadi.

Farzand hayotining turli bosqichlariga aloqador diqqatga sazovor marosimlardan yana biri *adim chorak* marosimidir. Mazkur marosim Gurlan tumanida *ajaq chiqti* nomi bilan yuritiladi. Marosim bolaning ilk qadam ota boshlagan paytida o'tkaziladi. Ushbu marosim uchun maxsus kichkina-kichkina qilib cho'rak (non) lar yopiladi. Ular *adim chorak* deb ataladi. Bolaning oyog'i tagiga yangi mato tashaladi va oyog'i mato yoki ip bilan bog'lanadi. Oyog'idagi ip qaychi bilan kesilganidan keyin orasidan yopilgan cho'raklar dumalatib o'tiriladi. Bu marosimda cho'raklarni bolaning oyoqlari orasidan o'tkazilishi yo'l ochish, to'siqlarni bartaraf etish hamda baraka tilash ramzi sifatida talqin etiladi. Odim cho'raklar yoniga shirinliklar solib, mahalladagi yosh bolasi bor xonadonlarga tarqatiladi.

Milliy va diniy bayramlar. Oilaviy marosimlarimizdan milliy va diniy bayramlarimizning hayotimizda katta ahamiyatga ega. Ular yurtimizda qadimdan nishonlanib kelingan va hozirda ham keng miqyosda tantanali qilib o'tkaziladi. Bu bayramlardan biri *Navro'z* bayramidir. Xalqimizning eng sevimli bayrami *Navro'z* ko'pincha yangi yil sifatida nishonlanadi. Ushbu bayramning yangi yil sifatida nishonlanishi qadimiy davrlarga borib taqaladi. K.A.Inostransev sostoniyalar Eronida nishonlanadigan bu bayram haqida shunday deydi: "Bu bayram yangi yil hisoblanib, uni nishonlash uchun kumush stol tuzatiladi. Ustiga yettita oq payola, yettita oq (kumush) dirham, oq qand, tozalangan yong'oqning oq mag'zi, sut, pishloq, nihoyat, ozodlikka chiqarilgan oq burgut qo'yiladi. Bu predmetlarning barchasi sostoniy shohlarining bayramlaridagi muqaddas udumlardir. Bundan asosiy niyat yangi yilni kutishda baxt-saodat sari intilishdir"[3]. Mazkur bayramda milliy taomimiz "sumalak" pishiriladi. Sumalak pishirish uchun maxsus xonada bug'doy undiriladi. Bu xonaga begonalar kiritilmaydi. Bug'doyga suv berish uchun shu xonaga tahorat qilgan, pok odam kiritiladi. Sumalakni pishirishda qozonga dastlab yog' solinib, unda tuxum qovurib olingan. Ayrim hududlarda yog'da bo'g'irsoq pishirilib, is chiqarilgan. Keyin esa suv, un solinib sumalakni pishirish jarayoni boshlab yuborilgan. Sumalak niyat qilinib tez-tez kovlab turilgan. Qozonga tosh, yong'oq ham solingan. Agar sumalak pishgandan keyin tosh va yong'oqlar kimning oldidan chiqsa, o'sha insonning niyati amalga ashadi, deya irim qilishgan. Bu bayramda yig'ilganlar qozon atrofida o'yin-kulgu qilib raqsga tushishgan, bolalar varrak uchirib, *chullik* [chillak. yerni o'yib yoki biror narsa orasiga qo'yilgan kichkina tayoqchani katta tayoqcha yordamida uzoqqa uchirish o'yini], *länji* [bolalar oyog'i bilan tepib o'ynaydigan bir parcha po'stak] [1:65-b] o'ynashgan.

Diniy bayramlardan eng katta bayramlarimiz Ramazon hayiti va Qurbon hayitlaridir. Hayit bayramlaridan oldingi bir kun Xorazmda *is guni* deb nomlanadi. Bu kunda oilalarning o'z qadryatlariga ko'ra ertalab tong yorishmasdan, yoki ayrim oilalarda tushlik vaqtigacha, ayrim oilalarda kechgacha is chiqariladi. Is chiqarishda ba'zi hududlarda bo'g'irsoq, ba'zi hududlarda *pössiq* (po'nachik (go'shtsiz somsa)[1:112-b]. Yupqa qilib qo'lda yoyilgan xamirni yog'da qovurib olib tayyorlanadigan taom), ba'zi joylarda esa ham bo'g'irsoq ham po'ssiq pishiriladi. Boshqa hududlardan farqli ravishda Urganch tumanining G'oybu qishlog'ida shu kuni ertalab bo'g'irsoq, kechka esa barcha xonadonda *qurmuş* (so'msaning bir turi)[1:112-b] pishirish odati bor.

Mazkur marosim oila konseptining lingvokulturologik ifodasi sifatida oilaviy birdamlik, marosimiy tayyorgarlik va diniy-madaniy qadriyatlarning uyg'unligini aks ettiradi. Xususan, unda

*pössi*q va *qurmuş* kabi mahalliy taomlarning tayyorlanishi oilaviy an'analar davomiyligini, o'zaro mehr-oqibat va baraka tushunchalarini ramziy tarzda ifodalaydi.

Ramazon hayiti ro'za oyidan keyin nishonlanadi. Bu bayramda sadaqa beriladi, yaqinlar tabriklanadi. Qurbon hayitida qo'y yoki mol so'yilib, kambag'allarga, qarindoshlarga go'sht ulashiladi, ya'ni qurbonlik qilinadi. Qurbon hayitida uch kun davomida kim qurbonlik qilmoqchi bo'lsa, uch kun ichida qurbonlik va ehson qilinadi. Hayit kunlari qabristonlar tozalanib, marhumlar qabri ziyorat qilinadi. Bu kunlarda yaqinlar, keksalar holidan xabar olinadi. Xalqimiz orasida hayit kuni yangi kiyim kiyish kerakligi haqidagi odat bor. Shu munosabat bilan bu kunda barcha yangi kiyim kiyadi, bir-birlariga sovg'a-salom ulashadi.

Xulosa qilib aytsek, Xorazm viloyatidagi o'zbek shevalariga mansub "oila" konsepti milliy qadriyatlar, marosimlar va lingvomadaniy birliklar orqali shakllangan murakkab lingvokulturologik hodisa sifatida namoyon bo'ladi. U qarindoshlik munosabatlari, nikoh tizimi va avlod davomiyligi g'oyalari bilan uzviy bog'liq bo'lib, hududiy leksik birliklar va oilaviy marosimlar orqali ifodalanadi.

Tahlillar natijasida to'y, tug'ilish va sunnat kabi marosimlarga oid sheva birliklari oila konseptining asosiy semantik maydonini tashkil etishi, shuningdek, ular orqali nasl davomiyligi, hurmat-izzat, baraka va ijtimoiy birdamlik kabi qadriyatlar aks etishi aniqlandi.

Bundan tashqari, Xorazmga xos sheva birliklari va urf-odatlar qadimiy diniy qarashlar bilan bog'liq bo'lib, oila konseptining tarixiy va madaniy ildizlari chuqur ekanini ko'rsatadi. Umuman olganda, oila konsepti til va madaniyat uyg'unligida shakllangan muhim lingvokulturologik birlik sifatida baholanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Абдуллаев Ф. Ўзбек тилининг Хоразм шевалари. – Тошкент: Ўзбекистон фанлар академияси нашриёти, 1961. – Б. 112.
2. Al-Bukhari, Muhammad ibn Ismoil. Al-jome' as-sahih (Sahih al-Bukhari). – Qohira: Dar al-Hadith, 2002. – 4-jild. – 338-bet.
3. Иностранцев К.А. Сасанидские этюды. СПб., 1909.
4. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. – Тошкент: Ўзбекистон Миллий энциклопедияси, 2008. -4 том.-В.149.

